FARG‘ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 14-avgust | 142-11-153-Q/24 | Beshariq tumani hokimligi

Beshariq tuman markaziy hududidan kesib o‘tuvchi umumfoydalanuvda bo‘lgan avtomobil yo‘llariga yo‘l harakati qoidalarining 3.27 yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

Tuman markaziy qatnov qismi bo‘lgan yo‘llarda, ayniqsa, tuman markazining Yangi hayot MFY hududidagi “Turon savdo komplekisi”AJ ga kirish va Birodarlik ko‘chasiga chiqish yo‘llarida yo‘l-transport hodisalarining sodir etilishi va tirbandlikning hosil bo‘lishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish asosida yo‘l harakati qoidalari buzilishi profilaktikasi, yo‘l-transport hodisalari va yo‘llar bandligining oldini olish, yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlarini o‘rnatish, ushbu orqali yo‘l harakatini tartibga solish hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN

1.Tuman Ishchi guruh tomonidan tuzilgan dalolatnoma hamda loyiha sxemasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Beshariq tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi tasarrufidagi 4K - 923 “Yaypan - Rapqon - Beshariq – Chilmahram” avtomobil yo‘llining 24 km qismining chap tomoniga tutashuvchi Do‘stlik ko‘chasi hududiga 1 dona 3.27 (To‘xtash taqiqlangan) va 1 dona 3.18.2 (Chapga burilish taqiqlanadi) yo‘l belgilari hamda muassasa tasarrufidagi 4K-923 A “Beshariq shahri” avtomobil yo‘lining 1-2 km oraliq qismining chap tomoniga tutashgan Yangi hayot MFY Birodarlik ko‘chasiga 1 dona 3.27 (To‘‘xtash taqiqlangan), 1 dona 3.18.1 (O‘ngga burilish taqiqlangan), 1 dona 3.1 (Kirish taqiqlangan) yo‘l belgilari “qo‘shimcha axborot ishora” yo‘l belgilari bilan qo‘shib o‘rnatilsin (3.27 — 3.30 belgilarining amal qilish oralig‘i oxiriga 3.27 — 3.30 belgilari 7.2.3 qo‘shimcha axborot belgisi bilan birga takror o‘rnatiladi yoki 7.2.2 qo‘shimcha axborot belgisi bilan qo‘llaniladi).

3.Tuman Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi rahbari A.Anvarov, Beshariq tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori Z.Nazirov, tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i Sh.Qosimovlarga vakolatlari doirasida kelishuv asosida yo‘l belgilarini me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan ko‘rinishda balandlikda o‘rnatilishini ta’minlash;

Yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlari, yo‘l harakatini tartibga solishning boshqa vositalari bilan jihozlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4.Tuman “Beshariq tongi” gazetasi bosh muharriri S.Temirovga, mazkur qarorni tuman gazetasida chop etish vazifasi topshirilsin.

5.Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiritilsin.

6.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **R.K.Jo‘rayev**